

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA VAQTNIFODALOVCHI SO‘ZLARNING QIYOSIY TAXLILI

Abdug‘aniyeva Nafosat Soxibjonovna,

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida vaqt tushunchasining ifodalanishidagi o‘xshash va farqli jihatlar bayon etilgan. Shuningdek, ushbu mavzuga doir misollar o‘zbek va ingliz tillarida havola etilgan.

Kalit so‘zlar: Vaqt, sahar, ertalab, tush, tushdan keyin, shom, kech, xufton, tun, kun, morning, afternoon, twilight, night, lunch time, o‘clock, midnight, a.m, p.m.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СЛОВ, ОБОЗНАЧАЮЩИХ ВРЕМЯ, В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Абстрактный: В данной статье рассматриваются сходства и различия в выражении понятия времени в узбекском и английском языках. Также приводятся примеры, иллюстрирующие эту тему в обоих языках.

Ключевые слова: Время, рассвет, раннее утро, утро, полдень, время после полудня, сумерки, вечер, ночь, день, время обеда, час, полночь, время до полудня, время после полудня.

A COMPARATIVE ANALYSIS OF WORDS EXPRESSING TIME IN UZBEK AND ENGLISH

Abstract: This article highlights the similarities and differences in the expression of the concept of time in Uzbek and English. Examples illustrating this topic in both languages are also provided.

Key words: Time, dawn, morning, noon, afternoon, dusk, evening, late evening, night, day, morning, afternoon, twilight, night, lunchtime, o'clock, midnight, a.m., p.m.

“Vaqt” tushunchasi inson tafakkuri va ta’tilida muhim o‘rin tutuvchi lingvistik hamda falsafiy kategoriyalardan biridir. Vaqt tushunchasi o‘zgarmaydi, ammo vaqtga oid ayrim terminlar va kun qismlari dunyoning turli tillarida har xil ifoda etiladi.

Bunga yaqqol misol qilib o‘zbek tilidagi kun qismlarini, jumladan, **sahar, ertalab, tush, tushdan keyin, shom, kecha, xufton, tun** vaqtlarini aytish mumkin.

“**Sahar** – (arabcha – erta tong, tongotar) g‘ira-shira tong yorishgan mahal, erta tong payti. Sinonimi – **bomdod**” [3]. Masalan, “**Sahar** 4 da yo‘lga chiqishga to‘g‘ri keldi” yoki “**Bomdod** vaqti ancha kechikibdi-da, a?”.

“**Ertalab** – kunning boshida, tong otgandan keyin, erta bilan” [1]. Masalan, “Biz **ertalab** soat 7 da stadionda yugurdik va badantarbiya mashqlarini 8 gacha bajardik”.

Tush vaqti – kunning teng o‘rtasi, ya’ni quyosh osmonda eng yuqori nuqtaga ko‘tarilgan paytni belgilaydi. Masalan, “**Tush vaqti** bo‘lganiga qaramay havo biroz salqin edi”.

Tushdan keyin – tush vaqtdan to kun botgunicha yoki shom kirgancha bo‘lgan vaqt oralig‘i. Masalan, “**Tushdan keyin** bolalar o‘yin maydoniga borishdi”.

“Shom – (forscha – kechki ovqat; kechki payt, oqshom) – quyosh botib, qorong‘ulik tusha boshlagan payt va shu paytda o‘qiladigan namoz” [3]. Masalan, “Eskilarning aytishiga qaraganda, **shom** payti jinlar uyidan chiqar emish”.

“Kecha – sutkaning qorong‘u tushgandan tong otgancha o‘tadigan qismi; tun, oydin kecha” [1]. Masalan, “**Kechasi** qayerda edingiz, aka?”.

“Xufton (forscha, uxlamoq, uxlash) – quyosh botgandan bir-ikki soat keyingi vaqt, taxminan, kech soat yettidan o‘ngacha davom etuvchi vaqt” [3]. Masalan, “**Xufton** mahalida mehmonlar kelib qoldi”.

“Tun – sutkaning kun botishidan kun chiqqungacha, oqshomdan tongotargacha bo‘lgan qismi” [3]. Masalan, “**Tun** yarmida oy ko‘rindi”.

Ingliz tilida esa bu tushunchalar o‘zbek tilidan ancha farq qiladi. Jumladan, ularda kun va tun qismlari alohida so‘zlar, qo‘shimchalar bilan ifodalanadi. Tushgacha bo‘lgan vaqtga ular ko‘pincha [**a.m**] tushunchasini qo‘llaydi.

Inglizlarda quyidagicha talqin qilinadi:

“Ertalab, sahar, tong – **morning**” [2]. Inglizlarda sahar, tong, ertalab kabi so‘zlar bitta ma’noga ega. Masalan, “I do a lot of exercises every **morning**”.

Tush payti – **afternoon** [2]. Bu so‘z ham tushdan keyin degan ma’noni anglatadi. “I study English twice afternoon”.

Shom – **twilight** [2]. Shom payti va shomdan keyin so‘zlari shu ma’noda keltiriladi. Masalan, “It was hard to see him clearly **in the twilight**”.

Kechasi tun – night [2]. Inglizchada bu so‘zning sinonimlari ko‘p, ular quyidailar: nighttime, hours of darkness, darkness, night fall. Masalan, “It was a lovely starlit **night**”.

Xufton so‘zi ingliz tilida mavjud emas, ammo **night** so‘zi ushbu so‘zning tarjimasiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga ularda vaqt ko‘rsatkichlariga **lunch time**, **midnight**, **o‘clock**, **a.m** (ertalabdan tushgacha - morning-afternoon), **p.m** (12 dan keyin)ga qo‘llaniladi. Masalan, “At five o‘clock” [4], “The lesson started at 8:00 a.m”.

Xulosa qilib aytganda, vaqt inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u barcha xalqlar va madaniyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek va ingliz tillarida vaqtni ifodalovchi so‘z va iboralar qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda vaqtni ifodalashning umumiy tamoyillari mavjud bo‘lsa-da, ularning qo‘llanishi, grammatik tuzilishi hamda lingvomadaniy xususiyatlarida o‘ziga xos farqlar kuzatiladi. Ayniqsa, vaqt mintaqalarining turlicha bo‘lishi natijasida dunyoning turli hududlarida vaqt va uning nomlanishi farqlansa ham, vaqtning soat, daqiqa va soniya kabi xalqaro o‘lchov birliklari orqali ifodalanishi uni barcha xalqlar uchun tushunarli va yagona mezoniga aylantiradi. Shunday ekan, vaqtni ifodalovchi til birliklarini qiyosiy o‘rganish nafaqat ikki tilning leksik va grammatik xususiyatlarini chuqurroq anglashga, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, tarjima jarayonining aniqligini ta’minlash hamda chet tillarini

samarali o'qitishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek va ingliz tillarida vaqtni ifodalashning o'xshash va farqli jihatlarini yoritish orqali qiyosiy tilshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitishga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbek tilining izohli lug'ati (sayti).
- 2.Wisdom app.
- 3.Sanayev M, "Yoshlar ovozi", maqola. 29.11.2023.
- 4.Google.com

